

# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(dastlabki ma'lumotlar)

Yanvar-dekabr 2019 yil


## RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi **14,1 trln. so'm**, o'sish sur'ati **4,3 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **104,6 %** ni tashkil qildi. Shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **109,9 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **101,6 %**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi 14 148,3 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 104,3%ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 13 817,4 mlrd.so'mni (102,8%), o'rmon xo'jaligi – 233,7 mlrd.so'mni (102,3 %), baliq xo'jaligi – 97,1 mlrd.so'mni (110,2 %) tashkil qildi.

1-diagramma

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi (mlrd. so'm)






Xususan yuqori o'sish sur'atlari Do'stlik (109,2 foiz), Zafarobod (106,8 foiz) va G'allaorol tumanlarida (105,7) kuzatildi. Zarbdor (102,9 foiz), Paxtakor (102,7 foiz), Baxmal (102,7) va Arnasoy tumanlarida (102,5 foiz) esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

2-diagramma

### **Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**




Jizzax viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Baxmal tumanining ulushi 14,5 foizni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, G'allaorol va Zomin tumanlari mos ravishda 13,8 foiz va 11,5 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rnlarni egalladi. Eng kam ulush Jizzax shahrida (1,5 foiz) va Yangiobod tumani (2,7 foiz) qayd etildi.

### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 104,6 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 109,9 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 101,6 foizni tashkil qildi.


## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 73,9 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,9 %i – fermer xo'jaliklariga, 1,2 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

*3-diagramma*

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida, %da





Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, barcha hududlarda eng yuqori ko'rsatkichlar dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

## Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 5 135,6 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 109,9 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 37,4 %ni tashkil qildi.



*1-jadval*

### 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari


|                       | Barcha<br>toifadagi<br>xo'jaliklar |                          | shu jumladan           |                          |  |                          |   |                          |               |
|-----------------------|------------------------------------|--------------------------|------------------------|--------------------------|--|--------------------------|---|--------------------------|---------------|
|                       |                                    |                          | fermer<br>xo'jaliklari |                          | dehqon<br>(shaxsiy<br>yordamchi)<br>xo'jaliklari |                          | qishloq xo'jaligi<br>faoliyatini<br>amalga oshiruvchi<br>tashkilotlar |                          |               |
|                       | ming<br>tonna                      | o'sish<br>sur'ati<br>%da | ming<br>tonna          | o'sish<br>sur'ati<br>%da | ming<br>tonna                                    | o'sish<br>sur'ati<br>%da | ming<br>tonna   | o'sish<br>sur'ati<br>%da | ming<br>tonna |
| Don ekinlari          | 590,3                              | 112,5                    | 542,1                  | 111,2                    | 30,1   | 98,2                     | 18,1  | 2,7 m.                   |               |
| Kartoshka             | 65,9                               | 105,9                    | 11,9                   | 129,5                    | 53,8   | 101,8                    | 0,2   | 104,4                    |               |
| Sabzavotlar           | 421,1                              | 106,6                    | 139,8                  | 114,1                    | 277,2  | 103,4                    | 4,1   | 96,9                     |               |
| Poliz                 | 244,1                              | 107,5                    | 112,8                  | 115,5                    | 127,9  | 101,6                    | 3,3   | 94,5                     |               |
| Meva va<br>rezavorlar | 87,7                               | 106,3                    | 30,7                   | 115,9                    | 55,4   | 102,0                    | 1,5   | 92,6                     |               |

|      |      |       |      |       |      |       |     |       |
|------|------|-------|------|-------|------|-------|-----|-------|
| Uzum | 28,8 | 116,9 | 11,1 | 146,5 | 17,6 | 103,7 | 0,1 | 101,7 |
|------|------|-------|------|-------|------|-------|-----|-------|

**Hosilni yig'ib olish.** 2019 yilning yanvar – dekabr oylarida 512 109 tonna (113,6 foiz) boshoqli don ekinlari, shundan 475 404 tonna (118,9 foiz) bug'doy, 65 892 tonna (105,9 foiz) kartoshka, 421 117 tonna (106,6 foiz) sabzavotlar, 244 075 tonna (107,5 foiz) poliz, 87 660 tonna (106,3 foiz) meva va rezavorlar, 28 832 tonna (116,9 foiz) uzum mahsulotlari yig'ib olindi.

4-diagramma


### Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi %da



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiyligi hajmining 81,8 foizi, sabzavotlarning 65,8 foizi, oziqbop polizning 52,4 foizi, meva va rezavorlarning 63,2 foizi, uzumning 61,1 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 91,8 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.

## 2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**Don ekinlari (ming t)**




**Kartoshka (ming t)**




**Sabzavotlar (ming t)**

**Poliz (ming t)**



Mevalar va rezavorlar (ming t)



Uzum (ming t)



## Chorvachilik



2019 yilning yanvar-dekabrida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 8 581,0 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,6 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 62,6 %ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 2,9 ming tonna go'sht (1,3 %ga), 15,1 ming tonna sut (2,5 %ga), 31,6 mln.dona tuxum (11,7 %ga), 0,1 ming tonna jun esa (2,7 %ga), 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan ko'p islab chiqarildi.

*2-jadval*


### 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari

|                             | Barcha toifadagi xo'jaliklar |                  | shu jumladan:       |                  |   |                  |  |                  |
|-----------------------------|------------------------------|------------------|---------------------|------------------|---|------------------|--|------------------|
|                             |                              |                  | fermer xo'jaliklari |                  | dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari |                  | qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar |                  |
|                             | miqdori                      | o'sish sur'ati % | miqdori             | o'sish sur'ati % | miqdori                                 | o'sish sur'ati % | miqdori  | o'sish sur'ati % |
| Go'sht tirik vaznda, ming t | 215,3                        | 101,3            | 3,7                 | 152,0            | 210,6                                   | 100,7            | 1,0  | 108,6            |
| Sut, ming t                 | 609,0                        | 102,5            | 8,6                 | 126,5            | 599,3                                   | 102,3            | 1,1  | 109,5            |
| Tuxum, mln. dona.           | 301,8                        | 111,7            | 11,4                | 215,1            | 181,8                                   | 102,9            | 108,5  | 123,1            |
| Jun, ming t                 | 3,9                          | 102,7            | 0,4                 | 124,1            | 3,4                                     | 100,9            | 0,2  | 100,6            |
| Qorako'l, ming dona.        | 6,5                          | 2,0 m.           | 2,3                 | 89,8             | 3,5                                     | 0,0              | 0,7  | 100,1            |
| Pilla, ming t               | 0,6                          | 107,6            | 0,6                 | 105,4            | -                                       | -                | 0,05   | 146,7            |

*6-diagramma*

### Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini

## ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi, %da



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiylajmiidan 97,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 98,4 %i, tuxumning 60,2 %i, junning 86,0 %i ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Qorako'l terining 35,1 %i esa fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

*7-diagramma*

### Hududlar kesimida asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**Go'sht (ming t)**


**Sut (ming t)**



**Tuxum (mln. dona)**



**Pilla (tonna)**



### Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2020 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiyligi bosh soni 899,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 251,8 ming boshga, qo'y va echkilar – 2 155,7 ming boshga, parrandalar – 3 574,4 ming boshga yetdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 5,3 ming boshga (0,6 %ga), shu jumladan sigirlar – 0,6 ming boshga (0,3 %ga), qo'y va echkilar – 37,4 ming boshga (1,8 %ga), parrandalar – 288,6 ming boshga (8,8 %ga) ko'paydi.

**2020 yilning 1 yanvar holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

|                            | <i>Barcha<br/>toifadagi<br/>xo'jaliklar</i> |                                 | <i>shu jumladan:</i>           |                                 |  |                                 |   |                                 |
|----------------------------|---|---------------------------------|--------------------------------|---------------------------------|--|---------------------------------|---|---------------------------------|
|                            |   |                                 | <i>fermer<br/>xo'jaliklari</i> |                                 | <i>dehqon<br/>(shaxsiy<br/>yordamchi)<br/>xo'jaliklari</i> |                                 | <i>qishloq xo'jaligi<br/>faoliyatini<br/>amalga oshiruvchi<br/>tashkilotlar</i> |                                 |
|                            | <i>ming.<br/>bosh</i>                       | <i>o'sish<br/>sur'ati<br/>%</i> | <i>ming.<br/>bosh</i>          | <i>o'sish<br/>sur'ati<br/>%</i> | <i>ming.<br/>bosh</i>                                      | <i>o'sish<br/>sur'ati<br/>%</i> | <i>ming.<br/>bosh</i>   | <i>o'sish<br/>sur'ati<br/>%</i> |
| <b>Yirik shoxli</b>        |   |                                 |                                |                                 |  |                                 |   |                                 |
| qoramollar                 | 899,1                                       | 100,6                           | 39,7                           | 107,4                           | 844,8  | 100,2                           | 14,6  | 106,5                           |
| <b><i>shu jumladan</i></b> |   |                                 |                                |                                 |  |                                 |   |                                 |
| sigirlar                   | 251,8                                       | 100,3                           | 11,8                           | 111,9                           | 236,6  | 99,7                            | 3,5   | 105,6                           |
| Qo'y va echkilar           | 2 155,7                                     | 101,8                           | 342,8                          | 107,6                           | 1 620,9  | 100,8                           | 192,0   | 100,2                           |
| Parrandalar                | 3 574,4                                     | 108,8                           | 298,9                          | 94,8                            | 2 041,1  | 102,8                           | 1 234,5   | 125,4                           |


2020 yining 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,4 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,7 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 15,9 %i fermer xo'jaliklariga, 75,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 8,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiylar sonidan 8,4 %i fermer xo'jaliklariga, 57,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 34,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

## 2020 yilning 1 yanvar holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni

**Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)**



**shundan, sigirlar (ming bosh)**




**Qo'y va echkilar (ming bosh)**



**Parrandalar (ming bosh)**



## Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

- 71-230-83-49
- 71-230-83-53